



BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN
TA'LIMDAN FOYDALANISH

Ganiyeva Nilufar Komil qizi.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogik Fakulteti Boshlang'ich ta'lim
Yo'nalishi 4-kurs 3-21-guruh talabasi
E-mail: kamoliddinganiyev15@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolamiz orqali yurtimizda hozirgi kundagi ta'lim jarayonida integratsiyaning ahamiyati va undan o'qituvchilarning qay usulda qo'llayotganligi. Ayni paytda maktablarda ham Jahon ta'limiga tayangan holda fanlarni o'zaro integratsiya qilgan holda darslarni samarali tashkil etib dars mobaynida turli xil metodlar va didaktik o'yinlarni qo'llagan holda o'quvchilarga o'tilayotgan mavzularni oson, tez va fikrlash doiralarini kengaytirish maqsadida darslarni olib borish yo'llari yoritilib borilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, integratsiya, integrativ darsliklar, integratsiyalashgan darslar, fanlararo integratsiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение интеграции в современном образовательном процессе в нашей стране, а также способы её применения преподавателями. Особое внимание уделяется организации учебных занятий в школах на основе мировых образовательных тенденций с использованием межпредметной интеграции. В процессе уроков применяются различные методы и дидактические игры, что способствует более лёгкому и быстрому усвоению материала, а также развитию мышления учащихся.*

Ключевые слова: *Инновация, интеграция, интегративные учебники, интегрированные уроки, межпредметная интеграция.*

Annotation: *This article explores the importance of integration in the current educational process in our country and the methods used by teachers to implement it. Special attention is given to the effective organization of lessons in schools based on global educational trends through the integration of different subjects. Various teaching methods and didactic games are used during lessons to help students understand topics more easily and quickly, as well as to expand their thinking skills.*

Keywords: *Innovation, integration, integrative textbooks, integrated lessons, interdisciplinary integration.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Integratsiya tushunchasi ta'lim tizimiga 20-asr oxiri - 21-asr boshlarida kirib kelgan yangi tushuncha sanaladi. Integratsiya jarayoni zamonaviy pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biriga aylanadi. Ta'limdagi integratsiya milliy tuzilmalarning yaqinlashishi, o'zaro ta'siri va o'zaro kirib borishining murakkab va keng qamrovli jarayonining bir qismidir. Innovatsiya va integratsiya so'zlari o'zaro bir--biri bilan chambarchas bog'liq. Chunki ulardan biri „Innovatsiyalar“ ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni va metodlarni olib kirs, „Integratsiya“ esa bu yangi metodlarni samarali qo'llashga yordam beradi. Shu ikkala jarayon birlashuvi orqali integratsiyalashgan darslar tashkil topadi. Hozirgi kunda maktab darsliklari ham zamon talabiga mos holda bo'lib, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitoblariga e'tibor qaratadigan bo'lsak kitoblar chiroyli bola e'tiborini o'ziga jalb eta oladi. Har bir fan yuzasidan IV chorak uchun mo'ljallangan I, II, III, IV, qismli kitoblari mavjud. Har qaysi fanga doir kitoblarni olib qaraydigan bo'lsak turli xil usullar, integrativ jarayonlar orqali, sxemalar, javdvallar, h.k orqali mavzular boshidan oxirigacha integrativ yo'llari orqali yoritilib borilgan. Integratsiyalashgan dars — bu turli fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni yaratish va ularni birgalikda o'rganish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi. Bu yondashuv, boshlang'ich maktabda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini hamda muammolarni hal qilishda mustahkam poydevor yaratishga yordam beradi. Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'limni qo'llash, o'quvchilarga faqatgina bir fan doirasida bilim olishdan ko'ra, ko'proq fikrlash, amaliyotga yondashuv va keng dunyoqarashni rivojlantirish imkonini yaratadi. Integratsiyalashgan ta'lim bir nechta fanlar yoki fanlararo sohalarning o'zaro bog'lanishiga asoslanadi. Bu ta'lim tizimi nafaqat fanlarni alohida o'rganishga, balki o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni kompleks tarzda hal qilishga tayyorlashga yo'naltirilgan. Boshlang'ich maktabda bu yondashuv o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, chunki ular o'rganayotgan mavzularni turli fanlar orqali ko'rib chiqishadi va yangi bilimlarni yanada kengroq ko'lamda qabul qiladilar. Fanlarni o'zaro integratsiya qilish bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi chunki ikkita fanni ham yoki bo'lmasam uchta, to'rta, beshta va h.k tagacha fanlarni ham o'zaro integratsiyalashimiz mumkin. Birgina STEAM texnologiyasini olib qaraydigan bo'lsak 5 ta fan o'zaro integratsiyalashgan.

Misol sifatida, matematika va tabiatshunoslik fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilar, tabiatdagi ob'ektlarning o'lchamlarini, shakllarini va boshqa xususiyatlarini matematik usullar yordamida tahlil qilishni o'rganishlari mumkin. Shu tarzda, boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, bilimlarni birlashtirishga va amaliyotda qo'llashga yordam beradi.





Texnologiya va rassomchilik orqali esa o'quvchilar o'zlari uchun kerakli bo'lgan asboblarni rasmini tasvirlash yo'li orqali uni yashashlari ham mumkin bo'ladi. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib ular shu dars orqali bir fan doirasida cheklanib qolmay bir nechta fanlar yuzasidan ham o'z bilimlarini mustahkamlab borishadi.

Xulosa: Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish o'quvchilarning bilimini yanada boyitish, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularning real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlanishiga yordam beradi. Bu yondashuv o'quvchilarga bilimlararo bog'lanishlarni ko'rish va kengroq dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilarning o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi va tarbiya darslarining integratsiyalashuv imkoniyatlari". Gulmira Sodiqova 8-IATCHO'ITboshlang'ich sinf o'qituvchisi. Boshlang'ich ta'lim gazetasi. 2021-yil, 10-son, 21-bet.
2. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o'qitishga tayyorlash". Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022-yil, 3-4bet.
3. "Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta'lim prinsiplari". Mavlonova, R., Raxmonqulova, N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2006.
4. Murodov, G.M. Innovatsiyalar va ta'lim jarayonidagi integratsiya. O'zbekiston Ta'limi, 2022
5. Toshbekova, D. A. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. Xalq ta'limi jurnali, 2023
6. Saidov, O. I. Innovatsiyalar va ta'lim: O'zaro aloqalar. Ta'lim tizimi tadqiqotlari, 2021
7. Anvarbekov, R. I. Yangi metodlar: Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar va integratsiya. O'zbekiston pedagogik jurnali, 2023
8. Karimova, S. T. Integratsiya va innovatsiyalar: Ta'lim jarayonida ahamiyati. O'zbekiston ilm-fan va ta'lim, 2020

